

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020 - yilning yanvar - mart oylarida Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda - YaHM) hajmi joriy narxlarda 4 078,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 7,1 % ga o'sdi.

2020 - yilning yanvar - mart oylari yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 1 547,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 4,7 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 3,7 % ni tashkil etdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

Ko'rsatkichlar	Mlrd. so'm		2019 - yil yanvar-martiga nisbatan % da
	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	
<b>I. YaHM</b>	<b>3 232,4</b>	<b>4 078,0</b>	<b>107,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	3 041,2	3 964,9	106,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	191,2	113,1	109,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>3 041,2</b>	<b>3 964,9</b>	<b>106,9</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	889,8	1 209,5	104,6
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	576,1	829,9	118,4
sanoat	282,2	460,0	126,3
qurilish	293,9	369,9	110,7
Xizmatlar	1 575,3	1 925,5	104,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	472,4	560,2	104,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	206,2	240,2	106,7
boshqa xizmat tarmoqlari	896,7	1 125,1	103,1

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 104,6 %, (YaHM tarkibidagi ulushi – 30,5 %), sanoat – 126,3 % (11,6 %), qurilish – 110,7 % (9,3 %), xizmatlar – 104,0 % (48,6 %) ni tashkil etdi.


**2020-yilning yanvar–mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiylar 97,2 % ni mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,8 % ni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHM tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 1,2 % punktga o'sdi va hisobot davrida 30,5 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 1,9 % punktga o'sdi va 20,9 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 48,6 % ni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar–mart oylari (51,7 %) bilan taqqoslaganda 3,1 % punktga kamaydi.


**Yanvar–mart oylarida yalpi hududiy mahsulotning  
tarmoqlar bo'yicha tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**




Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 14,1 % (2019 - yilning yanvar - mart oylarida - 15,5 %) ni tashish va saqlash, axborot va aloqa 6,1 % (6,8 %) ni xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar 28,4 % (29,4%) ni tashkil etdi.

**Yanvar–mart oylarida xizmatlar sohasining  
yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**

**2019 - yil**



**2020 - yil**



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Boshqa xizmat tarmoqlari

2020 - yilning yanvar – mart oylarida YaHM deflyator indeksi 2019 - yilning yanvar – mart oylaridagi narxlarga nisbatan 117,8 % ni tashkil etdi. YaHM deflyator indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 129,9 % ni, sanoatda 129,0 % ni, boshqa xizmat tarmoqlarida 121,7 % ni tashkil qildi.

Viloyatning o'rtacha darajasidan past bo'lgan deflyator indekslari qurilishda – 113,7 %, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 113,5 %, tashish va saqlash, axborot va aloqa – 109,2 %, mahsulotlarga sof soliqlarda – 53,8 % qayd etildi.

**2020-yilning yanvar–mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
*(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

